



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
«O'ZBEK GEOLOGIYA QIDIRUV» AKSIYADORLIK JAMIYATI
BUYRUG'I

2024 yil “ 05 ” 08 72 – son

Toshkent shahri

**“Monopoliyaga qarshi komplayens
tizimini joriy etish to'g'risida”**

O'zbekiston Respublikasi “Raqobat to'g'risida”gi Qonuni 9-moddasi hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagi “Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 114-sonli qaroriga muvofiq,

BUYURAMAN

1. Jamiyatda monopoliyaga qarshi komlayens tizimi uchun Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo'lim boshlig'i mas'ul etib tayinlansin.
2. Jamiyatning monopoliyaga qarshi komlayens tizimi nizomi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
3. Jamiyatning monopoliyaga qarshi komlayens tizimining 2024-yil uchun “Yo'l xarita”si 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda har yillik yangilab borilishi ta'minlansin.
4. Mazkur buyruqning ijrosi nazoratini o'z zimmamda qoldiraman.

Boshqaruv raisi

Sh. Alimov

**“O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyatida monopoliyaga qarshi komplayens
tizimini joriy etish va uning ishlash tartibi to‘g‘risida
NIZOM**

Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom “O‘zbek geologiya qidiruv” aksiyadorlik jamiyati (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat)da monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish, uning faoliyat yuritish va monitoring qilish tartibini belgilaydi.

2. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

monopoliyaga qarshi kurashish organi — O‘zbekiston Respublikasi Raqobatni rivojlantirish va iste‘molchilar huquqlarini himoya qilish qo‘mitasi va uning hududiy boshqarmalari;

monopoliyaga qarshi komplayens — faoliyatning raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini ta‘minlash, huquqbuzarliklar xavfini aniqlash va ularning oldini olishga qaratilgan ichki tashkiliy chora-tadbirlar va taomillar tizimi;

monopoliyaga qarshi komplayens to‘g‘risidagi hisobot — Jamiyat raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga amal qilinishini tashkil etish haqidagi axborotni o‘z ichiga oladigan hujjat;

vakolatli shaxs (bo‘linma) — Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat bo‘limi;

savdolar — tovar va xizmatlarni xarid qilish va sotish bilan bog‘liq bo‘lgan taomillar, shu jumladan, elektron savdo taomillari.

3. Quyidagilar monopoliyaga qarshi komplayens tizimining asosiy vazifalari hisoblanadi: raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining ehtimoliy buzilish xavflarini aniqlash va baholash hamda uni boshqarish;

Jamiyatda raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini ta‘minlash va monitoring qilish;

Jamiyatning faoliyatida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining hamda rahbarlar tomonidan o‘z vazifalarini bajarish jarayonida raqobatga zid xatti-harakatlar amalga oshirilishining oldini olish;

Jamiyatda monopoliyaga qarshi komplayens tizimini ishlash samaradorligini baholash va ta‘minlash;

Jamiyat xodimlarida raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishining oldini olish va muntazam ravishda ushbu yo‘nalish bo‘yicha ularning malakasini oshirish yuzasidan o‘qitish yo‘li bilan raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga doir fikrlarini rivojlantirish.

Monopoliyaga qarshi komplayens tizimini tashkil etish

4. Jamiyatda monopoliyaga qarshi komplayens tizimini joriy etish, uning faoliyat yuritishini ta‘minlash va monitoring qilish maqsadida tashkiliy tuzilma, shtatdagi xodimlari soni va faoliyat xususiyatiga muvofiq vakolatli shaxs (bo‘linma) tayinlanadi.

Jamiyatda monopoliyaga qarshi komplayens tizimini tashkil etish va uning ishlash samaradorligini baholash Jamiyatning ijro etuvchi organ yoki kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

5. Vakolatli shaxs (bo‘linma) quyidagilarni amalga oshiradi:

raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishini monitoring qilish;

faoliyatga tegishli materiallarni tahlil qilish (shu jumladan, raqobatni va (yoki) iste‘molchilarning huquq va manfaatlarini cheklaydigan normalarni aniqlashga qaratilgan ichki

hujjatlarni xatlovdan o'tkazish), aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etishga yo'naltirilgan choralarni ishlab chiqish;

raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan omillarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

monopoliyaga qarshi komplayens tizimining faoliyat yuritishi bilan bog'liq masalalar bo'yicha boshqa tuzilmaviy bo'linmalar bilan o'zaro aloqalarni muvofiqlashtirish;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilish bilan bog'liq ichki o'rganish ishlarini tashkil etish;

monopoliyaga qarshi kurashish organi bilan raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablari buzilishi bo'yicha o'zaro axborot almashish;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish maqsadida bir yilga mo'ljallangan "Yo'l xaritasi"ni ishlab chiqish va amalga oshirilishini ta'minlash;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari o'zgarishlarni monitoring qilish, shuningdek, idoraviy hujjatlarga tegishli o'zgartirishlar kiritish yuzasidan takliflar kiritish;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlash, xavflar bilan bog'liq holatlar hisobini yuritish va yuzaga kelish ehtimolini belgilash;

Jamiyatning faoliyatida raqobat cheklovlarini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvini aniqlash, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

Jamiyat xodimlariga raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga amal qilish bilan bog'liq masalalar bo'yicha maslahatlar berish;

monopoliyaga qarshi komplayens masalalari bo'yicha muntazam ravishda treninglar o'tkazish;

Jamiyat tomonidan qabul qilinadigan hujjatlarning loyihalarini o'rganish va raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan normalar aniqlangan taqdirda, bu haqda rahbarni xabardor qilish;

har yili birinchi fevralga qadar monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi hisobotni rahbariyatga tasdiqlash uchun taqdim etish.

Vakolatli shaxs (bo'linma) bevosita rahbarga bo'ysunadi va hisobdor bo'ladi.

Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishini aniqlash

6. Jamiyatda raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini aniqlash maqsadida vakolatli shaxs (bo'linma) tomonidan quyidagilar amalga oshiriladi:

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilishiga yoki bozorda raqobatni cheklashga olib keladigan normalar va qoidalarni aniqlash maqsadida normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish;

joriy etiladigan yangi cheklovlar, ruxsat berish tartib-taomillarining yangi turlari, litsenziyalarni, shuningdek, ruxsat berish xususiyatiga ega hujjatlarni yoki litsenziyalarni olish uchun qo'shimcha talablar yoki shartlarni hamda texnik tartibga solish talablarining joriy etilishini o'rganish;

tender va birja savdolariga qo'yiladigan monopoliyaga qarshi talablarga amal qilinishini tahlil qilish;

davlat xaridlarining raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga muvofiqligini o'rganish;

aniqlangan raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarini buzish holatlarini tahlil qilish;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlarni qo'llash amaliyotini monitoring va tahlil qilish;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini muntazam ravishda baholash;

vujudga kelish ehtimoli bo'lgan monopoliyaga qarshi xavflarni tahlil qilish va ularning ro'yxatini komplayens-xavflar xaritasi ko'rinishida tuzish;

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini kamaytirish bo'yicha ishlab chiqilgan va amalga oshirilayotgan tadbirlarning samaradorligini muntazam ravishda baholash.

Jamiyatning faoliyati xususiyatidan kelib chiqqan hamda rahbariyat bilan kelishilgan holda monopoliyaga qarshi komplayens tizimining samarali ishlashiga qaratilgan boshqa chora-tadbirlar ham amalga oshirish.

7. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish bo'yicha aniqlanadigan xavflar vakolatli shaxs (bo'linma) tomonidan mazkur nizomga ilovaga muvofiq darajalar bo'yicha taqsimlanadi.

8. Raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflarini tahlil qilish, aniqlash va baholash to'g'risidagi axborot monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi hisobotga kiritiladi.

Monopoliyaga qarshi komplayens tizimining ishlash samaradorligini baholash

9. Jamiyatda monopoliyaga qarshi komplayens tizimining ishlash samaradorligini baholash bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarni hisoblash monopoliyaga qarshi kurashish organ tomonidan ishlab chiqilgan metodika asosan hisoblab boriladi.

10. Vakolatli shaxs (bo'lim) Jamiyatda monopoliyaga qarshi komplayens tizimining erishilgan asosiy samaradorlik ko'rsatkichlarini baholaydi (yilda kamida bir marta).

11. Jamiyatmonopoliyaga qarshi komplayens tizimining ishlash samaradorligini baholash bo'yicha asosiy ko'rsatkichlarga erishilgani to'g'risidagi axborot monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi hisobotga kiritiladi.

Monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi hisobot

12. Monopoliyaga qarshi komplayens haqidagi hisobot quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

raqobat to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablarining buzilish xavflari bo'yicha o'tkazilgan baholash ishlarining natijalari hamda kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarning bajarilishi;

monopoliyaga qarshi komplayens tizimining asosiy samaradorlik ko'rsatkichlariga erishilgani haqidagi axborot.

13. Jamiyat tomonidan tasdiqlangan monopoliyaga qarshi komplayens bo'yicha hisobot Jamiyatning rasmiy veb-saytida joylashtiriladi va uch ish kuni ichida monopoliyaga qarshi kurashish organiga yuboriladi.